



**PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERIDA RAQOBATBARDOSH
KADRLARNI KASBIY TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**“University of economics
and pedagogy” notm
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
kafedrası dotsenti
Surmaxon Ismoilova Amonovna,**

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15225166>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik ta'lim klasterining raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi innovatsion mexanizm sifatida o'rni va uning ta'lim tizimining sifatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik ta'lim klasterlari o'quv muassasalarining, ilmiy-tadqiqot institutlarining va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi orqali ta'lim jarayonlarini yanada samarali va raqobatbardosh qilib tashkil etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, klasterlashning xalqaro hamkorlik va ta'lim innovatsiyalariga qo'shgan hissasi, kadrlar tayyorlash jarayonida yangi metodologiyalarni qo'llash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday yordam berishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik ta'lim klasteri, raqobatbardosh kadrlar, innovatsion mexanizm, ta'lim tizimi, pedagogika, klasterlash, hamkorlik, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim innovatsiyalari, xalqaro hamkorlik.

how it helps to apply new methodologies and develop practical skills in the personnel training process, is discussed.

Mazkur maqolada pedagogik ta'lim klasterlari, ularning raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi innovatsion mexanizmi sifatidagi o'rni va ta'lim tizimining sifatini oshirishga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Klasterlarning ta'lim tizimiga kiritilgan yangiliklari, ular orqali amalga oshiriladigan hamkorlik va innovatsiyalar, shuningdek, ta'lim jarayonidagi samaradorlikni oshirishdagi muhim omillarni ko'rib chiqamiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, jumladan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi.

Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, talabalarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biri ekanligi juda ko'p ta'kidlab o'tildi.

Bugungi global iqtisodiyot va tezkor texnologik o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimi yangilanishi va innovatsion yondoshuvlarni joriy etishni talab qiladi. Xususan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalarida yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish uchun samarali mexanizmlar kerak. Ushbu talabni qondirishda pedagogik ta'lim klasterlari muhim o'rin tutadi. Pedagogik ta'lim klasterlari, o'quv muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali nafaqat ta'lim jarayonini takomillashtiradi, balki innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'quvchilar va o'qituvchilarni yangi bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlash imkonini yaratadi.

Respublika hududida oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayoniga dunyoning mashhur tendensiyalarini namoyon etish, uzluksiz ta'lim tizimida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

Bugungi kun globallashtirish jarayonida barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham jadal rivojlanishlar bo'lmoqda. Ta'lim tizimiga yangi innovatsiyalarni kirib kelayotgani, o'qitish metodlarini takomillashtirayotganligi, yangi ta'lim turlarini tizimga joriy etilayotganligi hozirgi



zamon pedagogikasi oldida turgan muammolarni tizimli ravishda hal qilinib borilayotganligidan dalolat bermoqda desak aslo adashmaymiz.

Ivanova N. A. o'zining “Innovatsion mexanizmlar va ta'lim tizimining rivojlanishi” asarida pedagogik klasterlarni yaratishning amaliy jihatlarini ko'rib chiqdi va ta'lim tizimidagi klasterlash jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratdi. U klasterlar pedagogik ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratishini va bu jarayonni mukammallashtirishni ta'kidlab o'tdi [2, 73-b.].

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlashda doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2022 dagi PQ-289-qarori qabul qilingan.

Qonunga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

ta'lim dasturlarining o'zaro uyg'unligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'limda foydalaniladigan darsliklar hamda metodik qo'llanmalarni pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalariga ularning talabnomasiga muvofiq pullik asosda taqdim etish tartibini joriy qilsin;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlasin deb ko'rsatilgan. [1]

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ – 289-Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan.

Prezident Farmoni va Qarorida ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitet va pedagogika institutlarida quyidagi ishlar amalga oshirish rejalashtirildi:

1. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari malaka talablari “4+2” ga moslashtirilgan yangidan ishlab chiqildi.

2. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari yangi talabalar asosida ishlab chiqildi.

3. Pedagog tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlari uchun “4+2” malakaviy amaliyoti dasturlari ishlab chiqildi.

4. Mos ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzildi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishda fan, talim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e'tibor kuchaydi. Shuning uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. So'nggi vaqtlarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pirovard natijasi ong-tafakkuri ozod inson shaxsini tarbiyalash, zamonaviy yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ekan bu o'z-o'zidan integratsion ta'lim klasterlarini innovatsion yondashuvlar asosida tuzishni taqazo etadi.

Pedagogik ta'lim klasterlarining malakali kadrlar tayyorlashdagi innovatsion metodlarini o'rganish orqali, ularga yangi metodikalar, texnologiyalar va xalqaro tajribalarni kiritish zarur [3, 68-b.].



Klaster ta'limning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy, ilmiy, innovatsion salohiyatni raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega innovatsion ta'lim-tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni amalda oshirishdir.

Klaster tizimi orqali oliy o'quv yurti – umumta'lim maktabi hamkorligini joriy etish muhimligini, dolzarbligini ko'rsatadi. Pedagogik innovatsion klaster tizimi orqali talaba shaxsini shakllantirishda biz nimaga erishamiz? - degan savolga quyidagicha umumiy xulosaga kelamiz:

- oliy o'quv yurti hamda umumta'lim maktabi o'rtasida hamkorlik o'rnatiladi;
- talabaning shaxs sifatida shakllanishning tizimli mexanizmi yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarori.
- 2.Ivanova N. A. Innovatsion mexanizmlar va ta'lim tizimining rivojlanishi. Moskva: Nauka, 2020.
- 3.Karimova M. K., Tursunov D. A. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalar. Tashkent: FAN, 2017.
- 4.Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения Chirchik, Uzbekistan International Conference 2022.
- 5.Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari ” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr.